

## O‘ZBEK TILIDA SINONIM QATORLARINING SEMANTIK-USLUBIY XUSUSIYATLARI

**Xasanov Akbarjon Abdurashidovich,**

*Qo‘qon davlat universiteti o‘zbek tili va adabiyoti  
kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi sinonim qatorlarning semantik va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot komponent va kontekstual tahlil usullari asosida amalga oshirilib, turli semantik maydonlarga mansub sinonimlarning ma‘no tarkibi va funktsional imkoniyatlari ochib beriladi. Badiiy matnlar misolida sinonimlarning qo‘llanish xususiyatlari, ularning ekspressiv va baholovchi ottenkalari aniqlanadi. Shuningdek, ayrim sinonimlar milliy-madaniy mazmunni ifoda etishi va nutqdagi uslubiy vazifasi asoslanadi.

**Kalit so‘zlar:** sinonimiya, semantika, uslubiyat, komponent tahlil, kontekst, leksik ma‘no, badiiy matn.

**Аннотация.** В данной статье анализируются семантические и стилистические особенности синонимических рядов в узбекском языке. Исследование выполнено на основе компонентного и контекстуального анализа, что позволяет выявить структуру значений и функциональные возможности синонимов, относящихся к различным семантическим полям. На материале художественных текстов раскрываются особенности употребления синонимов, их экспрессивные и оценочные оттенки. Особое внимание уделяется национально-культурной специфике отдельных лексических единиц и их стилистической роли в речи.

**Ключевые слова:** синонимия, семантика, стилистика, компонентный анализ, контекст, лексическое значение, художественный текст.

**Abstract.** This article examines the semantic and stylistic features of synonymic series in the Uzbek language. The study is based on componential and contextual analysis, which makes it possible to identify the structure of meanings and functional potential of synonyms belonging to different semantic fields. Using examples from literary texts, the paper reveals the patterns of synonym usage, as well as their expressive and evaluative nuances. Special attention is paid to the national and cultural specificity of certain lexical units and their stylistic functions in discourse.

**Keywords:** synonymy, semantics, stylistics, component analysis, context, lexical meaning, literary text.

**Kirish.** Sinonimiya tilshunoslikda leksik tizimning eng muhim va murakkab hodisalaridan biri hisoblanadi, chunki u tilning boyligi, ifoda uslubining kengligini ko‘rsatadi.[1.44] Bir ma‘no maydonida joylashgan so‘zlar o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ular mutlaq bir xil ma‘noni ifoda etmaydi, balki har biri muayyan semantik ottenkaga ega bo‘ladi. Shu jihatdan, sinonimlarning chuqur tahlili tilshunoslikda dolzarb vazifalardan biri sifatida qaraladi. Ayniqsa, sinonimlarni badiiy matnlar asosida o‘rganish ularning haqiqiy funktsional imkoniyatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki badiiy nutqda har bir so‘z muayyan estetik va ekspressiv vazifani bajaradi hamda muallifning individual uslubini shakllantiradi.

Mazkur tadqiqotda turli semantik maydonlarga mansub sinonim qatorlar badiiy matnlar asosida tahlil qilindi va ularning uslubiy xususiyatlari aniqlandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi sinonim qatorlarning semantik strukturasi ochib berish va ularning

nutqdagi funktsional rolini belgilashdan iborat. Shu orqali o‘zbek tili leksik tizimining boyligi va ifodalilik imkoniyatlari yanada chuqurroq yoritiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasi semasiologiya va uslubiyatning muhim tadqiqot obyektlaridan biri sifatida keng o‘rganilgan. Shavkat Rahmatullayev o‘z ishlarida sinonimlarning leksik-semantik tabiatini yoritib, ularning nutqdagi uslubiy vazifalarini tizimli tahlil qilgan. Mahmud Mirtojiev esa o‘zbek tili semasiologiyasi doirasida sinonimlarning semantik strukturasi komponent tahlil asosida izohlagan. Rustam Qo‘ng‘urov nutq madaniyati va uslubiyat masalalarini o‘rganar ekan, sinonimlarning kommunikativ va ekspressiv imkoniyatlariga alohida e‘tibor qaratgan. Shuningdek, zamonaviy tadqiqotlarda sinonimiya lingvomadaniy va kontekstual yondashuvlar asosida ham tahlil qilinib, ularning milliy-madaniy qatlamlari ochib berilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda sinonim qatorlarni o‘rganishda bir necha o‘zaro bog‘liq ilmiy usullardan foydalanildi, bu esa tahlilning kompleks xarakterga ega bo‘lishini ta‘minladi. Shu o‘rinda aytish mumkinki, sinonimik qatordagi har bir leksema sememasi bir xil yadro semalaridan tashkil topadi va qo‘shimcha pragmatik sema orttirgan bo‘lishi mumkin, [3.209] shu bois leksik-semantik tahlil usuli so‘zlarning ma‘no tarkibini aniqlash imkonini beradi. Ushbu usul orqali har bir sinonim qatorning umumiy semasi va farqlovchi belgilari ajratib ko‘rsatildi. Ayniqsa, “qalbaki – soxta – yasama – sun‘iy – yolg‘ondakam – botil” qatorini tahlil qilishda “nohaqiqiylik” semasi markaziy omil sifatida qabul qilindi.

Shu bilan birga, komponent tahlil usuli ham qo‘llanilib, so‘z ma‘nosini tashkil etuvchi elementlar alohida-alohida o‘rganildi. Bu usul sinonimlar o‘rtasidagi nozik ma‘no farqlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi. [2.67] Masalan, “pok” va “toza” so‘zlarida umumiy “soflik” semasi mavjud bo‘lsa-da, ularning ma‘naviy va jismoniy mazmunlari komponent tahlil orqali farqlandi.

Tadqiqotda kontekstual tahlil usuliga ham alohida e‘tibor qaratildi, chunki so‘z ma‘nosi ko‘p hollarda aynan kontekstda to‘liq namoyon bo‘ladi. Shuningdek, uslubiy tahlil usuli qo‘llanilib, so‘zlarning badiiy, ilmiy va so‘zlashuv uslubidagi xususiyatlari taqqoslandi. Bu jarayonda “vertikal” kabi terminologik birliklar bilan “tik” kabi umumxalq so‘zlari o‘rtasidagi farqlar aniqlandi. Tadqiqotda taqqoslash usuli ham muhim o‘rin tutdi, chunki u sinonimlar o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni tizimli ravishda ko‘rsatish imkonini berdi. Shu bilan birga, tahlil natijalari umumlashtirilib, nazariy xulosalar chiqarildi va ular asosida sinonimiya hodisasining tizimli tavsifi berildi. Tadqiqot jarayonida tanlangan misollarning reprezentativligiga alohida e‘tibor qaratildi, ya‘ni ular sinonim qatorlarning asosiy xususiyatlarini ochib berishga xizmat qildi. Natijada qo‘llangan usullar majmuasi sinonimlarni har tomonlama va chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

**Tahlillar va natijalar.** O‘zbek adabiyotida sinonimlardan unumli foydalanish an’anasi shakllangan bo‘lib, yozuvchilar bir ma’noni turli so‘zlar orqali ifoda etish orqali nutqqa obrazlilik va ta’sirchanlik baxsh etadi. Masalan, “soxta” va “qalbaki” so‘zlari bir qarashda yaqin ma’noni anglatadi-da, ularning qo‘llanishidagi farq badiiy matnda aniq namoyon bo‘ladi. Xuddi shu kabi, “pok” va “toza” so‘zlari ham kontekstga qarab turli ma’no yuklamasiga ega bo‘ladi va ularni o‘zaro almashtirish har doim ham to‘g‘ri natija bermaydi. Bu holat sinonimiyaning mutlaq emas, balki nisbiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi.

Sinonim leksemalarda ma’no aynanligi, umumiyliigi bo‘lishi bilan birga, semantik farqlilik ham mavjud bo‘ladi, [6.76] shuning uchun sinonimlarning ma’no tarkibini aniqlashda komponent tahlil usuli muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u so‘zlarning umumiy va farqlovchi semalarini belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, kontekstual tahlil so‘z ma’nosining real nutqda qanday namoyon bo‘lishini ochib beradi. Ayniqsa, axloqiy tushunchalarga oid sinonimlar milliy-madaniy xususiyatlarni o‘zida mujassam etadi va bu holat ularning semantik yuklamasini yanada kuchaytiradi. Masalan, “nomus”, “oriyat”, “hayo” kabi so‘zlar nafaqat leksik birlik, balki madaniy qadriyatlarni ifoda etuvchi tushunchalar hisoblanadi. Shu sababli sinonimlarni o‘rganishda lingvomadaniy yondashuvni qo‘llash muhim hisoblanadi, chunki bu usul so‘z ma’nosining chuqur qatlamlarini ochib beradi.

Tadqiqot natijalari sinonim qatorlarning semantik va uslubiy jihatdan murakkab tizimni tashkil etishini ko‘rsatdi. Tahlil qilingan birinchi qator “qalbaki, soxta, yasama, sun’iy, yolg‘ondakam, botil” [5.9] umumiy “nohaqiqiylik” semasiga ega bo‘lsa-da, ularning ma’no darajalari turlicha ekani aniqlandi. Xususan, “qalbaki” so‘zida aldash va qasd komponenti kuchli namoyon bo‘lib, u ko‘proq ijtimoiy va huquqiy kontekstda qo‘llanadi. “Soxta” esa tashqi ko‘rinish va ichki mazmun o‘rtasidagi nomutanosiblikni ifoda etadi hamda ko‘proq badiiy nutqda uchraydi. “Yasama” va “sun’iy” so‘zlari nisbatan neytral xarakterga ega bo‘lib, ular tabiiylikka zid holatni bildiradi, biroq “sun’iy” ko‘proq ilmiy va texnik uslubda ishlatiladi. “Yolg‘ondakam” so‘zi ekspressiv xarakterga ega bo‘lib, u yuzakilik va qalbakilikni kuchaytirib ifoda etadi. “Botil” esa ma’no jihatdan boshqalardan farq qilib, falsafiy va diniy kontekstda “asossizlik” va “haqiqatga zidlik” ma’nolarini anglatadi.

Ikkinchi sinonim qator “tik, tikka, adil, vertikal” [5.169] yo‘nalish va holatni ifoda etish bilan bog‘liq bo‘lib, ularning uslubiy farqlari yaqqol namoyon bo‘ldi. “Tik” so‘zi universal va neytral hisoblanib, turli nutq turlarida qo‘llanadi. “Tikka” shakli esa harakat va holatni kuchaytirib, dinamiklikni ifoda etadi. “Adil” so‘zi badiiy-uslubiy xususiyatga ega bo‘lib, ko‘proq tasviriy nutqda ishlatiladi. “Vertikal” esa ilmiy termin sifatida qo‘llanib, badiiy nutq uchun xos emasligi aniqlandi.

Uchinchi qator “toza, ozoda, pokiza, pok” [5.181] soflik va tozalik ma’nosini ifoda etadi, biroq ularning ma’no ko‘lami turlichadir. “Toza” so‘zi eng keng qo‘llanadigan va

universal birlik hisoblanadi. “Ozoda” so‘zi tashqi ko‘rinish va estetik tozalikni ifoda etadi. “Pokiza” so‘zi yuqori darajadagi tozalik va badiiylik ottentkasiga ega. “Pok” esa nafaqat jismoniy, balki ma‘naviy soflikni ham anglatadi.

To‘rtinchi qator “uyat, nomus, sharm, hayo, or, oriyat, ibo” [5.215] axloqiy va ijtimoiy baholash semasiga asoslanib, eng murakkab semantik tizimni tashkil etdi. “Uyat” oddiy axloqiy cheklovni bildirsa, “sharm” ko‘proq ichki ruhiy holatni ifoda etadi. “Hayo” va “ibo” so‘zlari tarbiya va odob bilan bog‘liq tushunchalarni anglatadi. “Nomus”, “or” va “oriyat” esa yuqori darajadagi ijtimoiy va ma‘naviy qadriyatlarni ifoda etuvchi birliklar sifatida namoyon bo‘ldi.

Umuman olganda, natijalar sinonimlarning bir ma‘no maydonida joylashganiga qaramay, ular o‘rtasidagi semantik va uslubiy farqlar juda muhim ekanini ko‘rsatdi.

Olingan natijalar sinonimiya hodisasining murakkab va ko‘p qirrali ekanini yana bir bor tasdiqlaydi. Bir ma‘no maydonida joylashgan so‘zlar o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, ularning semantik strukturasi muhim farqlar mavjudligi aniqlandi. Bu esa sinonimiyaning mutlaq emas, balki nisbiy xarakterga ega ekanini ko‘rsatadi. Har bir sinonim muayyan semantik komponentlar majmuasiga ega bo‘lib, ular kontekstda turlicha namoyon bo‘ladi. Xususan, “qalbaki” va “soxta” so‘zlari o‘rtasidagi farq badiiy matnlarda aniq seziladi. “Qalbaki” so‘zida qasd va aldash maqsadi kuchli bo‘lsa, “soxta” ko‘proq tashqi ko‘rinishdagi sun‘iylikni ifoda etadi. Shu jihatdan, ularni har qanday kontekstda o‘zaro almashtirish mumkin emas. Shuningdek, “yasama” va “sun‘iy” so‘zlari o‘rtasidagi farq ham uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. “Sun‘iy” ilmiy va texnik nutqda keng qo‘llansa, “yasama” ko‘proq umumxalq nutqiga xos hisoblanadi. Bu holat sinonimlarning funksional-uslubiy taqsimlanishini ko‘rsatadi.

“Tik” va “vertikal” so‘zlari o‘rtasidagi farq esa terminologik va umumxalq leksikasi o‘rtasidagi chegarani belgilaydi. “Vertikal” so‘zi aniq ilmiy tushunchani ifoda etsa, “tik” ko‘p ma‘noli va universal xarakterga ega.

“Toza” va “pok” so‘zlari misolida semantik kengayish jarayoni kuzatiladi. “Pok” so‘zi ma‘naviy soflikni ham anglatishi bilan “toza”dan farq qiladi. Bu esa so‘z ma‘nosining abstraktsiya darajasiga bog‘liqligini ko‘rsatadi.

Axloqiy tushunchalarga oid sinonimlar esa alohida e‘tiborga loyiqdir. “Nomus”, “oriyat” kabi so‘zlar nafaqat leksik, balki madaniy va ijtimoiy kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Bu holat til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni tasdiqlaydi.

Shuningdek, sinonimlarning ekspressivlik darajasi ham turlicha ekani aniqlandi. Ayrim so‘zlar kuchli baholovchi ottentkaga ega bo‘lsa, boshqalari neytral xarakterda qoladi. Bu esa nutqdagi emotsional ta‘sirni boshqarish imkonini beradi. [4.116] Umuman olganda, sinonimlarning to‘g‘ri tanlanishi nutqning aniqligi, ravshanligi va ta‘sirchanligini ta‘minlaydi. Shu sababli ularni o‘rganishda kompleks va ko‘p tomonlama yondashuv talab etiladi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sinonim qatorlar tilning leksik tizimida muhim o'rin tutadi va uning ifodalilik imkoniyatlarini kengaytiradi. Sinonimlar orqali bir ma'no turli shakllarda ifoda etilib, nutqning ta'sirchanligi va obrazlilik ta'minlanadi. Biroq tahlil natijalari sinonimlarning mutlaq bir xil emasligini, balki ular o'rtasida nozik semantik farqlar mavjudligini ko'rsatdi. Bu esa sinonimiyaning nisbiy xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi.

Komponent tahlil usuli so'zlarning ichki ma'no tarkibini ochib berishda samarali ekani aniqlandi. Ushbu usul orqali sinonimlar o'rtasidagi umumiy va farqlovchi semalarni aniqlash imkoni yaratildi. SHu bilan birga, kontekstual tahlil so'z ma'nosining real nutqda qanday namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Badiiy matnlar tahlili sinonimlarning funksional imkoniyatlarini yanada kengroq ochib berdi. Har bir sinonim muayyan uslubiy vazifani bajarishi va kontekstga qarab turlicha ma'no yuklamasiga ega bo'lishi aniqlandi. Ayniqsa, ekspressiv va baholovchi so'zlar badiiy nutqda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot jarayonida axloqiy tushunchalarga oid sinonimlarning milliy-madaniy xususiyatlari ham yaqqol namoyon bo'ldi. "Nomus", "oriyat", "hayo" kabi so'zlar nafaqat leksik birlik, balki ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni ifoda etuvchi tushunchalar hisoblanadi. Bu holat til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi. SHuningdek, sinonimlarning uslubiy taqsimlanishi ham muhim ahamiyatga ega ekani aniqlandi. Ayrim so'zlar ilmiy uslubga xos bo'lsa, boshqalari badiiy yoki so'zlashuv nutqida faol qo'llanadi. Bu esa ularni tanlashda kommunikativ maqsadni hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, sinonimlarning chuqur tahlili tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u tilning ichki tizimini anglashga xizmat qiladi. Kelgusida sinonimiyani kognitiv va lingvomadaniy yondashuvlar asosida o'rganish yanada samarali natijalar berishi mumkin. Bu esa o'zbek tilining leksik boyligi va funksional imkoniyatlarini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jumayeva F. Polisemem leksemalar doirasidagi sinonim va antonim semalar tadqiqi. – Toshkent: Qaqnus-media, 2019. – 136 b.
2. Qo'ng'urov R. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 220 b.
3. Mirtojiev M. O'zbek tili semasiologiyasi. – Toshkent: Fan, 2010. – 288 b.
4. Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Universitet, 2006. – 320 b.
5. O'zbek tili sinonimlarining katta izohli lug'ati. 2-jild. – Toshkent, 2022. – 488 b.
6. Hakimova M. Semasiologiya. – Toshkent, 2008. – 100 b.